

**BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Sanginova Gulnoza Baxodirovna**

Qo'qon universiteti "Ta'lim kafedrasи" o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning dolzarbliji, uning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan. Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish jarayonini chuqur o'rganish, uning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda zamonaviy ta'lim tizimida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning ilmiy-metodik yo'llarini belgilab berishdir.

**Kalit so'zlar:** mehnat tarbiyasi, STEAM ta'limi, STEAM texnologiyasi, mehnat tarbiyasini shakllantirish, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika, o'yin orqali mehnat ko'nikmasi.

Bolalarda mehnat tarbiyasi – shaxsnинг shakllanishida muhim o'rın tutadi. U bolani mustaqillikka, mas'uliyatga, mehnatga bo'lgan hurmatga, ijtimoiy hayotga moslashishga o'rgatadi. Zamonaviy dunyoda bolalarni mehnatga tayyorlashning yangi usullarini yaratish, bu jarayonning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zarur. Ushbu maqolada bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish, ularni pedagogik amaliyatga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, muktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsad qilingan.

Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari.

Bolalarda mehnat tarbiyasi tushunchasi: Mehnat tarbiyasi bu bolalarda mehnatga bo'lgan qiziqish, mehnat qilish qobiliyati, mehnatga bo'lgan mas'uliyatni shakllantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash jarayonidir. Bu jarayon bolani hayotga tayyorlash, ijtimoiy hayotga moslashishga o'rgatish, uni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Muktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda bolalar mehnatga bo'lgan qiziqish, mehnat qilish qobiliyati, mehnatga bo'lgan hurmatni rivojlantirib, kelajakda mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishga tayyorlanadilar.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning bosqichlari: Bolalarda mehnat tarbiyasi shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Bola yoshligidan boshlab, u o'yin faoliyatini bajarish orqali mehnatga tayyorlanadi. Keyinchalik, muktabga tayyorgarlik davrida bolalar o'yin orqali mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muktab davrida esa mehnat tarbiyasi tizimli ravishda amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarning kasbiy yo'nalishini tanlashga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

Mehnatga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, bolalarni mehnatning ahamiyatiga, mehnat qiluvchilarga bo'lgan hurmatga o'rgatish iborat.

Mehnatning ijodiy xarakterini ochib berish, bolalarda mehnatni ijodkorlik jarayoni sifatida tushunishni shakllantiradi. Har bir bolaning imkoniyatlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda

mehnat tarbiyasini amalga oshirish, bolalarni mehnat qilishga, qo'llari bilan ishlashga o'rgatish darkor. Mehnat tarbiysi jarayonini tizimli ravishda amalga oshirish, har bir bosqichida belgilangan maqsadlarga erishishga undaydi.

Zamonaviy dunyoda bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning yangi yondashuvlarini tahlil qilish.

Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zamonaviy dunyodagi dolzarb muammo hisoblanadi. STEAM ta'limi, *loyihaviy o'rghanish, o'yinli o'rghanish* kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, mehnat tarbiysi dasturlarini takomillashtirish, o'qituvchilarni malaka oshirish va oila hamda jamoatchilik bilan hamkorlik bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

STEAM ta'limi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini birlashtiradi va bolalarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash, texnologik bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan. STEAM t'limi mehnat tarbiyasini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi, bolalarni kelajakda talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlaydi.

Loyihaviy o'rghanish bolalarni mustaqil ravishda ish olib borishga, g'oyalarni amalga oshirishga, jamoaviy ishlashga o'rgatadi. Ular o'z loyihalari ustida ishlash jarayonida mehnat qilishga, mas'uliyatni his qilishga o'rghanadilar. Loyihaviy o'rghanish bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, ularni mehnatga jalg qilishga yordam beradi.

O'yin bolalar uchun tabiiy faoliyatdir. O'yin orqali bolalar mehnatga bo'lgan qiziqishni, mehnat ko'nikmalarini, jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar. O'yinli o'rghanish mehnat tarbiyasini qiziqarli va jozibador qilishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar:

- Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish;
- Mehnat tarbiysi bo'yicha dasturlarni takomillashtirish;
- O'qituvchilarni malakasini oshirish;
- Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish;

STEAM ta'limi – loyhaviy o'rghanish, o'yinli o'rghanish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy qilishdan iborat.

Bolalarning yosh xususiyatlarini, psixologik va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mehnat tarbiysi dasturlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yish zarur.

O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish usullariga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Oila va jamoatchilikni mehnat tarbiysi jarayoniga jalg qilish, ularni bolalarni mehnatga tayyorlashda faol ishtiroy etish uchun undashga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun o'yin faoliyati asosiy bo'lib, mehnat faoliyati o'yin bilan bog'lanib, qiziqarli va jozibador holga keltiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda uy-ro'zg'or mehnati (tozalik, tartibga solish, o'yinchoqlarni tozalash), tabiatda mehnat (gul ekish, daraxtlarga g'amxo'rlik qilish), ijodkorlik mehnati (rasm chizish, haykaltaroshlik, qo'l san'ati) kabi turli mehnat turlari shakllantiriladi.

Mehnat tarbiyasini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak:

- bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlarini hisobga olish;
- mehnatni o'yinlar, topishmoqlar, ertaklar orqali qiziqarli qilib tashkil etish;
- bolalarni mehnat jarayoniga bevosita jalb qilish, ularga o'z qo'llari bilan ishslash imkoniyatini berish;
- mehnat faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish, bosqichma-bosqich murakkablashtirish;

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni mehnatga qiziqtirish va jalb qilish uchun bir necha muhim usullar mavjud:

**O'yinli Mashg'ulotlar.** Mehnat tarbiyasini o'yinlar orqali amalga oshirishda “Tozalik qirolichasi”, “Bog'bonlar”, “Oshpazlar” kabi rolli o'yinlarni tashkil etish ancha samara beradi va yana “Bog'bonlar”, “Do'kon sotuvchilar”, “Shifokorlar” kabi rollarni o'ynatib, bolalarni mehnatga qiziqtirish mumkin. O'yin davomida ular o'z vazifalarini bajarishda mas'uliyatni his qilib, o'zlarini katta odamlardek his qiladilar. Topishmoqlar va ertaklar: Mehnatga oid topishmoqlarni yechish, mehnatga oid ertaklarni tinglash bolalarni mehnatga qiziqtirishga yordam beradi. “Qiziqarli Mehnat” o'yinlari: Bolalarga qiziqarli mehnat o'yinlarini taklif etishda “O'yinchoqlarni tozalash”, “Gullarni sug'orish”, “Tozalik qirolichasi” kabi o'yinlar ularning mehnatga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

**Ijodiy yondashuv.** Rasm chizish va haykaltaroshlik: Bolalarni mehnatga oid rasmlarni chizishga, haykalchalar yaratishga undash. Masalan, “Bog'bonlar gul ekmoqda”, “Oshpazlar taom tayyorlamoqda” kabi mavzularda rasmlar chizish. Qo'l san'ati: Qog'ozdan, plastilindan, tabiiy materiallardan turli buyumlar yaratish. Masalan, qog'ozdan qushlar yasash, plastilindan mevalar yasash. Musiqa va qo'shiqlar: Mehnatga oid musiqa va qo'shiqlarni tinglash, ularni qo'shiq aytishga undash.

**Amaliy yondashuv.** Bolalarni kundalik mehnat ishlariga jalb qilish uchun guruh xonasini tozalash, o'yinchoqlarni tartibga solish, gullarga g'amxo'rlik qilish, stolni tozalash, o'z kiyimlarini kiyish va yechish kabi vazifalarni topshirish kerak. Loyihaviy Ish: Bolalarni birgalikda loyiha ustida ishslashga jalb qilish, ularga loyiha bosqichlarida faol qatnashish imkoniyatini berishda “Bizning bog'imiz”, “O'yinchoqlar do'koni”, “Yangi yil bayrami” kabi loyihalarni amalga oshirish mumkin. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnatga qiziquvchan bolalar uchun “Kichik o'quvchilar mehnat to'garagi”ni tashkil etishda bolalar turli xil mehnat turlari bilan tanishadilar, ularning mehnat ko'nigmalarini rivojlantiradilar. Bolalar bog'chasida mehnat burchagi: Mehnatga oid buyumlar, vositalar bilan jihozlangan burchak tashkil qilish. Bu burchakda bolalar o'zlariga qiziqarli mehnat bilan shu'ullanishlari mumkin.

**Rag'batlantirish va mukofotlash.** Maqtov va minnatdorchilik: Bolalarni mehnati uchun maqtab, minnatdorchilik bildirish. Kichik sovg'alar: Mehnat qilgan bolalarga kichik sovg'alar berish. Guruh oldida maqtov: Bolaning mehnati uchun guruh oldida maqtov.

**Oila bilan hamkorlik.** Ota-onalar bilan suhbatlar: Mehnat tarbiyasi haqida ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazish. Uyda mehnatga oid vazifalar: Ota-onalardan bolalarga uyda mehnatga oid vazifalar berishni so'rash. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, bu jarayonni zamonaviy talablarga moslashtirish va bolalarni kelajakda mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanishga

tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan amaliy tavsiyalar o'qituvchilarga bolalarda mehnat tarbiyasini samarali amalga oshirishda yordam beradi deb umid qilamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009. – B. 17.
2. А.Холиков, Педагогик маҳорат. –Тошкент «IQTISOD-MOLIYA» 2010. 311 6.
3. Axmedova M.T, Xodjayev B.X., Umumiy pedagogika (3-qism «Pedagogik mahorat»). – Buxoro-2017.
4. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – Toshkent – 2020
5. Sanginova, G.B. (2024). Improving organization in the first environmental education of preschool children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440-447.
6. Sanginova Gulnoza Baxodirovna (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama rivojlanishida mehnat tarbiyasining tutgan o'rni. Science and innovation, 3 (Special Issue 31), 561-564.
7. Sanginova Gulnoza Baxodirovna. (2023). Erta bolalik ta'limini qo'llab-quvvatlashda oilalarning roli. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9(9), 166–169.
8. Kalendarova Z.K. Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish// Zamonaviy uzlusiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar: Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2018. 27-aprel. – B. 553-555.
9. Kalendarova Z.K. Metodi i metodicheskiye priyemi obucheniya detey doshkolnogo vozrasta matematike// Moskovskoy oblasti "Gosudarstvennyi gumanitarno-texnologicheskii universitet": "Studencheskaya nauka podmoskovyyu" materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferensii molodых uchenых. – Orexovo-Zuyevo: Redaksionno-izdatelskiy otdel GGTU, 2018. – S. 221-224.